| | |
|---|---|
| | 10. Kurbonniyozov R. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti asoslari". Toshkent-1995.<br>11. To'xliyev N., va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" T.: 2006.<br>12. Richard S. Krannich, A.E. Lulof, Donald R, Field People, Places and Landscapes. Madison, WI 53706 USA. ISBN 978-94-007-1262-1. Elektron ta'lim resurslari<br>13. Rodrigue, J-P (ed). The Geography of Transport Systems. UK, London Third edition, Routledge. 416 pages. ISBN: 978-0-415-82254-1 Elektron ta'lim resurslari<br><br>**Elektron manbaalari**<br>1. www. ziyonet.uz<br>2. www. nuu. uz<br>3. www. connect.uz<br>4. www. gov.uzl |
| 7 | Fan dasturi Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining 2021 yil "27 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun ma`sullar:**<br>Muxamedov O.L.– JDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi mudiri g.f.n.<br>M.R. Usmanov – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi o'qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar**:<br>**Xakimov Q.M.** - JDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi professor v.b., geografiya fanlari nomzodi.<br>**Ravshanov A.** - SamDU Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti. PhD. |

000024



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGGIKA INSTITUTI**

"Tasdiqlayman"
Jizzax davlat pedagogika instituti
rektori: prof. Sh.S.Sharipov
2021 yil "27" 08

# AHOLI GEOGRAFIYASI VADEMOGRAFIYA ASOSLARI

FANINING O`QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta`lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta`lim

**Ta'lim yo'nalishi:** 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

**Jizzax – 2021**

| Fan/Modul kodi 351AGDA M1004 | | O`quv yili 202__-202__ | Semestr - III | Kreditlar - 4 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/Modul kodi Majburiy | | Ta`lim tili Q`zbek | | Haftadagi dars soatlari |
| 1 | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg`ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta`lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Aholi geografiyasi vademografiya asoslari | 60 | 60 | 120 |

2

**Fanning mazmuni.** Ushbu dastur ijtimoiy va iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan aholi va u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlami, dunyo, turli mintaqalur va mamlakatlar aholisi soni, ulaming tarkibiy jihatlari, hududiy joylashuvini va ularni bashoratlash masalalarini qamrab oladi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda atroflicha jamiyat ijtimoiy xayotining asosiy sub'ekti bo'lgan aholining Jahon, O'zbekiston Respublikasi va xarakterli ayrim mamlakatlar misolida, soni (dinamikasi) va takror barpo kilinish konuniyatlari, omillari, konsepsiyalari, axolining tabiiy va migratsion xarakatlari, mehnat resurslari va ulardan foydalanish xususiyatlari, aholining xududiy joylashuvi, axoli manzilgoxlarining shakllari va rivojlanishining geografik xususiyatlari bilan tanishtiradi. Shu bilan birga ishlab chikarishning asosiy t a r m o q d a r i xududiy joylashuviga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'rganib chiqishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - talabalarga aholi va iqtisodiy geografiyaning asosiy mazmuni, fanning asosiy tushuncha va qonuniyatlari, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanish xususiyatlari, uning tarkibiy jihatlari, xududiy joylashuvi va uning asosiy urinishlarini, ishlab chiqarish tarmoqdari va ularning rivojlanishining xududiy tafovvutlari, ishlab chiqarish tarmoqdari geografiyasini taxlil qilish asosida xulosalar chiqarishdan iborat.

**I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 - Modul. Aholi soni va dinamikasi, tabiiy harakatining hududiy jihatlari**

**1-mavzu. Fanining predmeti, nazariy, ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari.**

Fanning predmeti mazmuni, tarixi va vazifalari. Uning fanlar gizimida o'rni, aloqador fanlar bilan bog'liqdigi. Fannig asosiy mazmuni. Fanning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari, vazifalari, tadqiqot usullari. Asosiy tushuncha va qonuniyatlari.

**2-mavzu. Aholi soni va dinamikasi.**

Aholiining soni, dinamikasi, uning takror barpo qilinishi xususiyatlari, aholini xisobga olish zarurligi. Aholi soni va dinamikasi. Aholi dinamikasi xaqida tushuncha. Aholi dinamikasining davriy va xududiy tavsifi va ularning xususiyatlari. Aholi ro'yxati va aholini joriy xisobga olishning farqi. Aholi dinamikasi xaqida tushuncha. Aholi dinamikasining davriy va xududiy tavsifi va ularning xususiyatlari. Aholi ro'yxati va aholini joriy xisobga olishning farqi.

**3-mavzu. Aholining tabiiy harakati.**

Aholining tabiiy xarakati, u xaqida tushuncha, Bu jarayonda tug'ilish va o'lim xodisalari. Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarini aniq hisobga olishning zarurligi. Ularning koeffitsientlari. «Bolalar o'limi», «O'rtacha umr ko'rish» tushunchalari. Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish xolatiga tabiiy ta'sir etadigan omillar. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari bilan bog'lik bo'lgan aholini takror barpo

qilinishi tiplari, ularning xududiy, mintakaviy va davlatlararo ko'rsatkichlari. Aholining takror barpo etilishi kdrastkichlarida vaqt, davr va xudud ko'rsatkichlari.

**2-Modul. Aholi tarkibidagi o'zgarishlarning ilmiy-amaliy tahlili**

**4-mavzu. Aholining migratsion xarakatlari.**

Aholining mexanik (migratsiya) xarakati, uning xaqidagi tushuncha, aholi migratsiyasining tabiiy va tarixiy ob'ektiv jarayon ekanligi. Aholi migratsion xarakatining sabab va oqibatlari. Aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Migratsiya ko'rsatkichlarini xisobga olish, u bilan bog'lik tushunchalar: migratsiya darajasi, migratsiya koeffitsienti, migratsiya balansi va saldosi va boshqalar. Aholi migratsiyasining tiplari va turlari. Tashki va ichki aholi migratsiyasi, ularning tarixiy davrlar davomidagi asosiy yunalishlari va xajmi. Dunyo aholisi migratsiyasi. Ularning asosiy geografik xususiyatlari.

**5-mavzu. Aholining demografik tarkibi.**

Aholining tarkibi xayida tushuncha, uning biologik, tarixiy, ijtimoiy ob'ektivligi. Aholi demografik tarkibi uning yoshi va jinsiga bog'liq nisbatlar, ularning farqdari va ularning biologik jihatdan ob'ektivligi, aholining jinsi va yoshiga nisbatan o'rganilishining muhim ilmiy va amaliy ahamiyati. Aholining yosh tarkibi xususiyatlari. Aholi yosh tarkibini o'rganish va xisobga olish ishini ilmiy va amaliy axamiyati. Aholini yoshiga ko'ra guruxlanishi. Aholini yosh va jinsiy piramidasi. Aholining yosh tarkibi bilan bog'lik bo'lgan geografik va demografik tushunchalar. Aholining jinsiy tarkibi va xususiyatlari. Uning biologik sotsial, tinchlik, diniy, an'ana, psixiologik kabi omillarga bevosita bog'likdigi. Aholi jinsiy ko'rsatkichlarining xar xil mamlakatlar va xududlararo tafovutlanishi. Aholining yosh va jinsiy tarkibi bilan nikox va oilaning biologik va sotsial tarixiy ob'ektiv boglikdigi. Nikox va oila va ijtimoiy-ikgisodiy axamiyati. Ular xolati va ko'rsatkichlarining asosiy omillari. Iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtiomiy-psixiologik, milliy-yetnik, diniy rolatlar turlicha bo'lgan xudud va mamlakatlarda nikox va oila ko'rsatkichlarining tafovutlari. Nikox va oilaning rivojlanishiga yosh mustaqil O'zbekistonda alohida e'tibor berilishi.

**6-mavzu. Aholining irqiy tarkibi.**

Aholining biologik shakllariga ko'ra irqiy guruxlanishi: yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid irqdari va ularning geografiyasi. Irqlararo munosobatlar. «Irqiy kamsitishlar», «Aparteid», «O'tish irq», «Aralash irq» kabi tushunchalar. Jahon aholisi irqiy tarkibidagi mintakaviy tafovvutlar.

**3-Modul. Aholining milliy, diniy tarkibi va Mehnat resurslari haqida tushuncha**

**7-mavzu. Aholining milliy tarkibi.**

Aholining milliy tarkibi, turmush tarzi, psixiologik-an'anaviy xususiyatlarini o'rganish. Aholining milliy tarkibi bilan bog'liq tushunchalar: etnos, urug', qabila, elat, millat, xalq kabilar. Etno-konfessional tarkibning shakllanishi, turlari xamda ular orasidagi
o'xshashliklar va tafovvutlar. Xalqlarni etnik jihatlariga ko'ra klassifikatsiyalashda til belgilarining ahamiyati. Dunyo xalqlarining tiliga ko'ra eng yirik oilalar va ularni tashkil etuvchi asosiy guruxlari. Eng yirik xalklar va millatlar geografiyasi.

**8-mavzu. Dinlar va diniy tarkib xaqida tushuncha.**

Aholi diniy tarkibining xilma-xilligi, uning sabablari. Dinlarning tarixiy-ijtimoiy



kelib chikishi. Dinlar kelib chiqishining tarixiy, psixiologik, siyosiy va geografik negizlari. Dunyo xalqlari sivilizatsiyasi rivojlanishida dinlarning o'rni. Dinlar klassifikatsiyasi. Sodda (primitiv), mahalliy (milliy) va dunyoviy dinlar va ularning geografiyasi. Dunyoviy dinlar: xristian, islom va buddizmni kelib chiqishi, xududiy tarkalishi, ularning dunyo xalklari ma'naviy-madaniy xayotida tutgan O'RNI- Xozirgi davr dunyo ijtimoiy xayotida dinlarning roli.

**9-mavzu. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Aholining ijtimoiy-sotsial tarkibi.**

Mehnat resurslari xaqida tushuncha. Ularning alohida ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya ekanligi. Mehnat resurslarining shakllanishi va takror barpo qilinishining demografik asoslari. Mehnat resurslarining shakllanishi, ularning xududlar, davlatlar va mintakalararo joylashishi. O'zbekistonda mehnat resurslarining salmog'i, dinamikasi, tarkibi, ulardan foydalanishning hozirgi ahvoli, xususiyatlari va muammolari. Respublikada bozor munosobatlari rivojlana borishning mehnat resurslaridan foydalanishga ta'siri. Ijtimoiy hayot sharoitlarining xilma-xilligi. Aholining rivojlanishida ishlab chiqarish tarmoqdari, kasb ko'rsatkichlarining xududlar, mamlakatlararo turlichaligi, buning sababi va omillari. Sotsial tarkibi, uning kursatkichlari turlicha bo'lgan davlatlar bilan O'zbekistonni taqqoslash va tahdil qilish.

**4-Modul. Aholining hududiy joylashuvi va manzilgohlari**

**10-mavzu. Aholining xududiy joylashuvi.**

Aholi xududiy joylashuvining tarixiy, geografik asoslari, unda tabiiy va iqtisodiy geografik omillarining o'rni. Aholining xududiy joylashuvida inson omilining tarixiy davrlaridagi passivlik xolidan keyingi davrlarda faollik darajasiga o'tish. Aholi xududiy joylashuviga ko'ra gorizontal va vertikal ko'rsatkichlari. Aholi xududiy joylashuvining miqdor ko'rsatkichlari. Aholining o'rtacha zichligi, geografiyasi. Yer sharida aholining notekis joylashganligi, sabablari. O'zbekiston aholisi xududiy joylashuvining asosiy ko'rsatkichlari va xususiyatlari. Aholi joylashuvining geografik tizimlari. Aholining xududiy joylashuvi va aholi manzilgoxlari. Aholi manzilgoxlarining tashkil topishi va rivojlanishining geografik omillari. Aholi manzilgoxlari va ularning shakllari. Ularning asosiy tiplari.

**II. Amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg`ulotlari bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**

**III.I. Amaliy mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**1-Modul. Aholi soni va dinamikasi, tabiiy harakatining hududiy jihatlari**

**1-mavzu. Fanining predmeti, nazariy, ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari**

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining geografiya lanlari tizimida tutgan o'mi, turdosh va boshqa aloqador fanlar bilan bog'liqligi darajasini o'rganish va tahlil qilish. Fanning rivojlanishi tarixidagi muxim bosqichlurining asosiy xususiyatlarini aniqlash.

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari uchun na/ariy va ilmiy-amaliy asoslari bo'lib xizmat qiladigan falsafa, iqtisodiyot nazariyasi. iqtisodiy geografiya kabi fanlaming mazkur fan bilan bog'liq asosiy qonuniyatlari. kategoriyalaii, tamoyillarini tahlil qilish.

**2-mavzu. Aholi soni va dinamikasi.**

Aholining soni, uning takror barpo qilinishi. Statistik ma'lumotlaidan foydalanib dunyo

aholisi dinamikasi va uning ko'rsatkichlarining xududlararo farqlarini tahlil qilish. Aholi dinamikasi ko'rsatkichlari asosida aholi o'sish sur'atlarini xisoblab chiqish, kartografik chizmalami tayyorlash.

Aholini takror barpo qilinishini aniq xisobga olish yo'llaridan biri aholi ro'yxatini o'tkazilishini o'rganish.

**3-mavzu. Aholining tabiiy harakati.**

Aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgaii tabiiy xarakati ko'rsatkichlarini statistik ma'lumotlar asosida o'rganish. ulaming davr va xududlararo farqlari. Aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish koeffitsientlarini ishlab chiqish. Bu ko'rsatkichlar asosida davlatlami tiplarga ajratish va ular geografiyasini o'rganish.

**2-Modul. Aholi tarkibidagi o`zgarishlarning ilmiy-amaliy tahlili**

**4-mavzu: Aholining migratsion xarakatiari.**

Aholining ko'chib yurishi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan mexanik yoki migratsion xarakati ko'rsatkichlarini statistik ma'lumotlar asosida o'rganish, ulaming davr va xududlararo farqlari sabablari va oqibatlarini tahlil qilish. Migratsion salbdoni aniqlash. Migratsiya tiplari va ularning geografiyasini o'rganish.

**5-mavzu: Aholining demografik tarkibi.**

Aholi ro'yxati va statistik ma'lumotlar asosida aholining yosh va jinsiy tarkibi piramidasini ishlash usullari bilan tanishish va undagi tafovutlami tahlil qilish. Aholining nikoh va oilaviy tarkibidagi o'ziga xos jihatlami o'rganish.

**6. Mavzu: Aholining irqiy tarkibi.**

Karta va statistik ma'lumotlar asosida jahon mamlakatlarida irqlaming tarqalish xususiyatlari, ulaming turlari haqidagi ma'lumotlami tahlil etish.

**3-Modul. Aholining milliy, diniy tarkibi va Mehnat resurslari haqida tushuncha.**

**7-mavzu. Aholining milliy tarkibi.**

Aholining milliy, etno-konfessional tarkiblarini aholi ro'yxati va statistik ma'lumotlar asosida o'rganish. Ma'lumotlar asosida aholining milliy-etnik tarkibini karta-sxemasi va diagrammasini ishlash usullarini o'rganish.

**8- mavzu: Dunyo dinlari va diniy tarkib xaqida tushuncha.**

Aholining diniy tarkibini tarixiy va statistik ma'lumotlar asosida o'rganish. Asosiy dunyoviy dinlaming so'nggi yillardagi dinamikasi xususiyatlarini tahlil qilish va geografiyasini karta-sxemalarda aks ettirish.

**9-mavzu. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Aholining ijtimoiy-sotsial tarkibi.**

Aholi ro'yxati va statistik ma'lumotlar asosida turli mamlakatlar va xududlarda mehnat yoshidagi erkak va ayollar aholi salmog'ini aniqlash, ulardagi xududiy farqlarni tahlil qilish sabablarini o'rganish.

O'zbekistonda mehnat resurslari dinamikasi ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga xos o'zgarishlami aniqlash va tahlil qilish.

**4-Modul. Aholining hududiy joylashuvi va manzilgohlari.**

**10-mavzu. Aholining hududiy joylashuvi.**

Aholining turli mintaqalar bo'ylab tarqalish xususiyatlarini aniqlash. Mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish. Aholi zichligi yuqori bo'lgan asosiy areallami kartalarda ifodalash.

**11-mavzu. Shahar va qishloq aholi manzilgohlari.**

Aholining turli mintaqalar bo'ylab tarqalish xususiyatlarini aniqlash. Mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish. Aholi zichligi yuqori bo'lgan asosiy



areallami kartalarda ifodalash.

**12-mavzu. Aholi siyosati va uni prognozlashtirish.**

Qadimiy va zamonaviy kontseptsiyalaming farqi va o'xshash jihatlarini taqqoslash. Demografik bashoratlash usullarini o'rganish. Demografik siyosat olib borish turlarini tahlil qilish. Global gemografik muammolarning shakllanish sabablari ularning asosiy ko'rinishlari, jahon davlatlari aholisining hayoti va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish. Muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiya qilinayotgan loyihalar va Global demografik muammolarning O'zbekistonga xos jihatlarini tahlil qilish.

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari mazmuni | Dars soatlari hajmi |
|---|---|---|
| | **1-Modul. Aholi soni va dinamikasi, tabiiy harakatining hududiy jihatlari** | 2 |
| 1 | 1-mavzu. Fanining predmeti, nazariy, ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari | 2 |
| 2 | 2-mavzu. Aholi soni va dinamikasi. | 2 |
| 3 | 3-mavzu. Aholining tabiiy harakati. | 4 |
| | **2-Modul. Aholi tarkibidagi o`zgarishlarning ilmiy-amaliy tahlili** | |
| 4 | 4-mavzu: Aholining migratsion xarakatiari. | 4 |
| 5 | 5-mavzu: Aholining demografik tarkibi. | 4 |
| 6 | 6 - Mavzu: Aholining irqiy tarkibi. | 4 |
| | **3-Modul. Aholining milliy, diniy tarkibi va Mehnat resurslari haqida tushuncha.** | |
| 7 | 7-mavzu. Aholining milliy tarkibi. | 4 |
| 8 | 8- mavzu: Dunyo dinlari va diniy tarkib xaqida tushuncha. | 4 |
| 9 | 9-mavzu. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Aholining ijtimoiy-sotsial tarkibi. | 4 |
| | **4-Modul. Aholining hududiy joylashuvi va manzilgohlari.** | |
| 10 | 10-mavzu. Aholining hududiy joylashuvi. | 2 |
| 11 | 11-mavzu. Shahar va qishloq aholi manzilgohlari. | 2 |
| 12 | 12-mavzu. Aholi siyosati va uni prognozlashtirish. | 2 |
| | **Jami:** | **40 s** |

**IV.Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**

**IV.I. Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular (3 s):**

1. Axoli soning davriy o'zgarish xususiyatlari
2. Axoli va uni ro'yxatga olish jarayoni.
3. Axolining tabiiy ko'payish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar
4. Axolining zamonaviy migratsion xarakatlari.
6. Demografik portlash va demografik tanglik jarayonlari
7. Xalkaro migratsiya va uning sabab xamda oqibatlari.
8. O'zbekiston axolisining milliy va diniy tarkibi.
9. Etno-konfessional tarkibning shakllanish xususiyatlari.
10. O'zbekistonda mexnat resurslaridan foydalanish muammolari.
11. O'zbekistonda axolining xududiy joylashuvi.

| | |
|---|---|
| | 12. Mustakillik yillarida O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi.<br>13. O'zbek millati va tilining shakllanish xususiyatlari.<br>14. Dunyo dinlarining gyoografik tarqalishi.<br>15. Global demofafik muammolar va ularni xal etish yo'llari.<br>16. Urbanizatsiya jarayonining rivojlangan davlatlarga xos xususiyatlari.<br>17. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanayotgan davlatlarga xos xususiyatlari.<br>18. Axoli siyosati olib borishning o'ziga xos jihatlari.<br>19. O'zbekistonda axoli siyosatining asosiy yo'nalishlari.<br>20. Ma'lum davlat axolisi va uning tarkibiy xususiyatlarini taxdil etuvchi referat tayyorlash.<br>**Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.** |



| | |
|---|---|
| 3 | **Ta`lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>Talaba- tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini urganishdagi roli, tabiat qonuniyatlarini bilgan va uni hisobga olgan holda iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etishni o'rganishdagi tutgan o'rnini ochib berish borasida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;<br>Talaba - aholi, ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylashish xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar haqida tushuncha hosil qiladi va iqtisodiyotdagi ahamiyati, tahlil qilish va prognoz qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi,<br>Talaba- fanning bosh tushunchalari mohiyatini tushuntirish va amaliyot bilan bog'lash, mintaqalar, mamlakatlar va ularning turli hududlarida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va aholining hayot faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratish masalalarini hal etish buyicha nazariy va amaliy bilimlarni o'rganadi, Iqtisodiy jarayonlarga xos statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni kartada tasvirlay olish to'g'risida aniq malakalariga ega bo'lishi kerak.<br>**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**:<br>• ma'ruza;<br>• keys-stadi;<br>• induvidial loyihalar;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish. |
| 4 | **Ta`lim texnologiyalari va metodlari.**<br>Talabalarni "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" fanini chuqur o'zlashtirishlari uchun ilg'or zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi. Fanni chuqur o'zlashtirishda ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, tarqatma materiallar, kartalar bilan bir qatorda yangi statistik ma'lumotlar, aholi va unga xos hamda sanoat, qishloq xo`jaligini joylashtirish jarayonlarni ko'rsatuvchi video filmlar, slaydlar ham katta yordam beradi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda zaruriy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.<br>"Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:<br>**Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o`z mohiyatiga ko`ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta`limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta`lim oluvchining shaxsini emas, avvalo kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.<br>**Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi.<br>**Faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta;limni ifodalaydi.<br>**Dialogik yondashuv.** Bu yondashuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`-o`zini faollashtirishi va o`z- |

o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama – qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash** – yangi kompyuter va axborot texnoligiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

**O`qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta`lim, keys-stadi, pinbord, paradox va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O`qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O`qitish vositalari:** o`qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits – so`rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostika.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejalashtirish, qo`yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg`ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida ham o`qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.



5

**Kreditlarni olish uchun talablar.**

**Kredit-modul tizimida talabalar bilimini baholash mezonlar**

**Aholi geografiyasi vademografiya asoslari fani bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat mezonlari**

| № | Nazorat turlari | Nazorat o'tkazish muddatlari (*har bir modul yakunidan nazorat o'tkaziladi*) | Ajratilgan ballar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Eng yuqari ball | O'tish balli | Umumiy ball |
| 1 | Joriy nazorat (*fan 4 moduldan iborat*) | 1 modul | 5 | 3 | 30 |
| | | 2 modul | 5 | 3 | |
| | | 3 modul | 5 | 3 | |
| | | 4 modul | 5 | 3 | |
| | | Mustaqil ish | 10 | 6 | |
| 2 | Oraliq nazorat | Oraliq nazorat | 20 | 12 | 20 |
| 3 | Yakuniy nazorat | Yakuniya nazorat | 50 | | 50 |
| | Jami | | | | 100 |

6


**Asosiy adabiyotlar**

1. Baxritdinov B.A. va boshqalar. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. T.: 2008.
2. Bo'riyeva M, Tojieva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari Toshkent-2011.
3. Qayumov A va boshqalar Aholi geografiyasi va demografiyasi T.2011
4. Ромашова Г.В. География населения с основами демографии (практикум). Томек. 2014.100 с.
5. Safarova N., Amanbayeva Z., G'apporov A. Moddiy ishlab chiqarish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, Universitet, 2013.
6. Soliyev A., Safarov I. "Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent, Universitet, 2003

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T; "O'zbekiston", 2017,
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикасининг президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. 2017 й., 6-сон. 70-модда.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон". 2017.
5. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: O'qituvchi, 1997
6. Nazarova X. Aholi migratsiyasida ayollarning roli. T.: O'qituvchi 1999 y.
7. Bo'rieva M.R. Oila va demografiya asoslari (ma'ruza matni) Toshkent-2001
8. Asanov G.R., Nabixonov., Safarova I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'grofiyasi. T.: "O'qituvchi" 1994.
9. Amanov M., Abduraxmonov A. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari. Qoraqolpog'iston. T., 1995.